

ISSUES OF FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL VALUES OF YOUTH IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Qoratoyev Torabek Anvarjon o'g'li

Andijan Pedagogical Institute, student of the

"Social Science Teaching Methodology

(Fundamentals of Spirituality)" course

E-mail: qoratoyevtorabek1@gmail.com

Tel.: +998 99 875 08 68

Abstract. The article analyzes the issues of shaping the spiritual and moral values of youth in the context of globalization. It highlights the role of national and universal values in the upbringing of young people and emphasizes the importance of the education system in forming a well-rounded generation. The study also identifies key aspects of developing the spiritual maturity, social activity, and moral qualities of youth.

Keywords: globalization, youth education, spiritual and moral values, well-rounded generation, national values, universal values, education system, spirituality.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING MA'NAVYIY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning muhim jihatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, barkamol avlod, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat.

Kirish. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan yoshlarning intellektual salohiyati, ma'naviy yetukligi va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Shu bois barkamol avlodni shakllantirish, ularda Vatanga sadoqat, insonparvarlik, mehnatsevarlik hamda mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirish bugungi kun ta'lim va tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Asosiy qism. Globallashuv davrida yoshlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, axloqiy fazilatlarining mazmun–mohiyatini chuqur anglash, ana shu xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon bo'lib qoladi [1, B. 28].

XXI – Intellektual asr avlodi yanada aqlli, bilimli, odobli, sog'lom va baxtli bo'lishi, ya'ni o'z ifodasini axloqiy qadriyat va ajdodlardan meros insoniy fazilat va xususiyatlarni o'z ongi, tafakkuri, hatti–harakatiga mujassamlashtirishi, dunyoviy va amaliy axloq tamoyillariga to'la amal qilishi orqali anglab yetadi va yetmoqda [2, B. 59]. Yurtboshimiz, insonga xos orzu–intilishlarni ro'yobga chiqarish, ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash va tushunish, ongli hayot kechirish uchun moddiy va ma'naviy olamni ikki muhim omil sifatida uyg'unlashtirsa inson, jamiyat va davlat hayotida o'sish, o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi, Demak, barkamol avlodning intellektual salohiyati, iste'dod va qobiliyati ro'yobga chiqishi uchun eng avvalo uning moddiy asoslarini yaratib berish lozimdir.

Bu vazifalarni amalga oshirishning eng muhim xislati ta'lim tizimi standartlarini, o'quv dasturlari, ta'lim tizimiga xos moddiy–texnik bazani takomillashtirish hamda yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, yoshlar o'rtasida

boshlangan nufuzli katta ishlarimizni yanada takomillashtirish, uning moddiy–texnik extiyojini to‘la ta‘minlash, yoshlar egallayotgan bilim va ko‘nikmalaridan zamonaviy kasb–xunar sohasida keng foydalanish, ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, ya’ni bandlik muammosini ijobiy hal qilish oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Yuqoridagi vazifalardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, barkamol avlod kamoloti moddiy va ma’naviy hayot tamoyillarini inkor etmay, aksincha uzviy o‘zaro uyg‘unlikda amaliyotga tatbiq etishni taqozo qilmokda. Bu uzviylik asosida olib borilgan ishlar ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bu jarayon XXI intellektual asrning aniq va ravshan talablariga mos jihatlari bilan katta ahamiyat va e‘tiborga molikdir. Yuqorida qayd etilgan keng qamrovli vazifalarni ijtimoiy hayotga tatbiq etishning eng oliy maqsadi yoshlarimizni har tomonlama intellektual yetuk va mukammal XXI asr talablariga hozirjavob akme–shaxs qilib kamol toptirishdir.

Barkamol avlod barcha imkoniyat, sharoit va imtiyozlardan bahramand bo‘lib, oliyjanob milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar qurshovida o‘sib–o‘nmoqda, yetuklikka intilib, kamolot sari bormoqda [3, B. 32]. Axloqiy qadriyatlar majmuasi odamzodning ma’naviy boyligini, ruhiy teranligini, komilligini bilish, halollik va adolat, ezgulik va yaxshilik bilan hayot kechirish kabi oliyjanob umuminsoniy va milliy xislat–fazilat, ongu tafakkur, xulq–odob, faoliyat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiy ifodasi, desak xato bo‘lmaydi. Axloqiy qadriyatlar atamasi axloqiy xislat, fazilat va xususiyatlarda ifoda qilinadi. Ammo, axloqning hamma qirralari, mazmun–mohiyati, jamiyat, millat va fuqarolarning ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lish shakpi va tamoyillari, axloqiy qadriyatlar tizimida muayan darajada ifodalanadi.

Axloqiy qadriyatlar axloqiy qoida, meyor, ideal va maqsadlarni baholash mezonini va usullarni ham o‘zida aks ettiradi. Ular ezgulik, yaxshilik, adolat, daxldorlik, bag‘rikenglik, mehr–oqibat, saxovat, ishonch, or–nomus, vijdon, baxt, burch,

mehnatsevarlik, yurtparvarlik, sadoqat, jasorat, kamtarlik, halollik kabi fazilatlar shaklida namoyon bo‘ladi [4].

Axloqiy qadriyatlar tabiat hamda inson, jamiyat va milliy– elatlarning ijtimoiy hayotidagi jarayon, voqealik xodisalarga xos axloqiy munosabatlarni ham o‘z ichiga qamrab olgan. Axloqiy qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lish bilan birga millat xususiyatlarga ham boydir. Ayniqsa, qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lish bilan birga milliy xususiyatlarga o‘zining mazmun–mohiyati, mavqei, jamiyat va inson kamolidagi ahamiyati va betakrorligi, serqirra va sermazmunligi bilan millatimiz mentalitetiga xos va ma’naviyatimizga mos hamda hayotimizning uzviy bir qismi, ya’ni ma’naviy hayotimizning negizi sifatida ajralib turadi.

Axloqiy qadriyatlarning tub ma’nosi har bir jamiyatga adolat, birdamlik, ezgulik, mustaqillik, tenglik va erkinlik imkoniyat asosida komil, yetuk va mukammal insonni kamol toptirishga qaratilgan. Mustaqil yurtimizda yuz berayotgan salohiyatli iqtisodiyotni barpo etish, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish, xuquqiy va ijtimoiy munosabatlarni yangilash, ijtimoiy–mafkuraviy va ma’naviy–axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish, fuqarolarda fikr erkinligi, tafakkur teranligi, Vatanga sadoqat, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik, kasbkorlik, odob va madaniyatni yuksaltirish, mulkdorlik sinifni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar muhim zamin va omil bo‘ladi va bo‘lmoqsa.

Bu jarayon umuminsoniy qadriyatlarga suyangan holda o‘z millati qadriyatlar asosida rivoj topadi. Chunki, milliy qadriyatlar bobomeros ajdodparga xos axloqiy xususiyatlarga suyangan holda boshqalarga o‘xshamaydigan rang–baranglik, betakror mazmun va xususiyatlar hamda boy axloqiy tushunchalar yig‘indisidir. Masalan, o‘zbek xalqiga xos shunday axloqiy tushunchalar mavjudki, bu tushunchalarning atamasi ham, axloqiy mazmun–mohiyati ham boshqa millatlar ma’naviyatida hamisha mavjud bo‘lavermaydi.

O‘zbek xalqiga xos axloqiy fazilatlar mehr–oqibat, mehr–shavqat, qadr–qimmat, muruvvat, himmat, diyonat, oriyat, iffat, ibo, tavoze, mulozamat, nazokat, halimlik, xush fe’llik, latofat, nazakat, dahldorlik, qanoat, insof, oilaparvarlik, karamlik, kabilarning so‘z sifatida atamasi, axloqiy qadriyat sifatida mazmun–mohiyatini anglash boshqa millatlarda uchratish birmuncha mushkul, deb o‘ylaymiz.

Ammo, bu jarayon boshqa millatlarga xos axloqiy qadriyatlarni e’zozlash, qadrlash va ularga bag‘rikenglik, xurmat bilan yondoshishni inkor qilmaydi. Demak, o‘zimizning asrlar sinovidan sayqallanib o‘tgan milliy axloqiy qadriyatlarimizni tiklash bilan ularni dunyoviy va zamonaviy ruh bilan boyitishimiz, boshqa millat qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish – qadr– qimmat, bag‘rikenglik, insonparvarlikni anglatadi.

Axloqiy qadriyatlar ichida eng nufuzli va keng mazmun– mohiyatga boy oliy qadriyat – insondir [5, B. 45]. Uning qadr–qimmatini va izzat–hurmati mustaqil yurtimizda alohida ahamiyatga molikdir. Chunki, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, maqsad va vazifalar eng avvalo inson uchun, uning mafaatlari, barcha moddiy, ma’naviy, xuquqiy–axloqiy ehtiyojlarini ruyobga chiqarishga qaratilgan. Umuman olganda, "O‘zbek modeli" tamoyillari asosidagi islohotlar ham inson mafaati, sog‘lom turmush tarzi, farovon hayoti va ma’naviy–axloqiy kamolotini ta’minlashga qaratilgan. Ayniqsa, sog‘lom barkamol avlodni jismonan sog‘lom hamda shukrona xulq–odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida tarbiyalash muhim vazifa bo‘lib qoladi. Davlatimiz tayanchi, millatimiz ishonchi, kelajagimiz egasi barkamol avlodning yetukligi, intellektual salohiyatini yanada boyitish, mukammal shaxs sifatida kamol topishi uchun axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, eng dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Bugungi yoshlar ushbu qadriyatlarning haqiqiy yetuk vorisi va shijoatli davomchisi ekanligini ijtimoiy hayotning hamma sohalarida namoyon etmoqdalar.

Barkamol avlod intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida har bir faoliyati, hatti-harakati, bilim olishi, zamonaviy kasb-xunarni o'zlashtirishi, texnologiyani egallash borasida ulkan vazifa va maqsadlarni anglashda teran fikr, ongli tafakkur orqali, aql-zakovat, zehn, uquv, qund-chidamni ishga solib jamiyat, millat va avlod oldidagi maqsadlarni amaliy hayotga tatbiq etishda jasorat, matonat va faollik ko'rsatmoqsa. Ular bilim orqali maqsadga erishish, millatimizga xos intellektual boylik, tarihiy, madaniy-ma'naviy merosimizga loyiq shaxs bo'lish bilan birga burchni asrash va avaylashga ma'sul ekanliklarini g'urur va iftixor bilan anglab yetmokedalar. Bunday shukronalik tuyg'usining asosiy omili – Yurtboshimizning qalb qo'ridan chiqqan mehr nuri bilan sug'orilgan yurtimiz yoshlariga, mening farzandlarim deb otalarcha g'amxo'rliklari va amalga ijobat bo'layotgan sa'y-harakatlaridir. Bu g'amxo'rlik Yurtimizda istiqomat qilayotgan ota-onaga ibrat timsolidir. Yoshlarimiz ravnaqi uchun zaruriy imkoniyat, sharoit, erkinlik va imtiyozlar milliy qonunchiligimizda zarxal harflar bilan belgilangan. XXI asr avlodi fikr, zehn, tafakkur va faoliyat jarayonida o'zligini chuqur anglab, qobiliyat va salohiyatini takomillashtirmoqda. Ular ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot ishlarining samaradorligi tufayli, millat va milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini chuqur anglab ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda faol qatnashmoqdalar. Hayotda o'z o'rnini topib yashash, foyda keltirishga intilmokedalar.

Bugungi yoshlar fikr erkinligi va xilma-xilligi, mantiq teranligi, tafakkur doirasining kengligi, nutq madaniyati, bunyodkorlikka yo'naltirilgan faoliyati bilan "hech qachon, hech kimdan kam" bo'lmasligini amalda isbotlamoqdalar. Bugungi yoshlarga qarab shukronalik bilan g'ururlanasan, kishi. Ulardan teranlik, zukkolik, matonat va shijoatni ko'rib xavas tuyg'usiga botasan. Bu havasga loyiq jarayon mustaqil yurtimizda yuz yillarga tatigulik istiqbol natijasidir. Buning yorqin ifodasini yoshlarning keng qamrovli faoliyati, bilishi, ma'naviy-axloqiy yuksalishi, iqtidor va iste'dodni namoyon etishi, taraqqiyot sari intilishida yaqqol ko'rish mumkin.

Barkamol avlodning intellektual boyligini takomillashtirish, bugungi o'sib–unib kelayotgan farzandlarimizni ijtimoiy hayotga mukammal va yetuk salohiyat hamda va iste'dod egalari bo'lib kirib borishi davlatimiz, jamiyatimiz va uning institutlari oldida turgan eng ulug' va yechimini kutayotgan vazifalar mavjudligining obyektiv haqiqatidir. Yoshlarimiz siyrati ham, surati ham go'zal, odobli, bilimli, aqlli, dono va mukammal ma'naviy–axloqiy fazilatlarga ega, yangi asr talablariga mos va hozirjavob shaxs bo'lishlari lozim. Farzandlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy, ma'naviy–axloqiy muhit, sog'lom turmush tarzini rivojlantirishimiz zarur. Istiqlolning sermashaqqatli keng qirralik vazifa va maqsadlarini teran anglab, yangi asr avlodiga mos fazilatlarni egallash, ajdodlarimizga xos boqiy axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish va ularni asrab–avaylash hamda davr talabiga mos bilim, tajriba, texnologiya, zamonaviy kasb– hunarlarni egallash lozim.

Hayot falsafasidan kelib chiqib turmush tarzimiz, ijtimoiy hayot jabhalariga teran nazar tashlasak, ijobiy jihatlarimiz qatorida salbiy holatga monand yoshlar ongu tafakkurida, mustaqil, dunyoqarashga nisbatan qat'iy bo'shligi, fikr faqirligi, ruh qaramligi, iroda va qobiliyat sustligi, loqaydpik, boqimandalik, mustaqil nafaollik, axloqiy kemptiklik, mantiqiy bilimsizlik, tanqidiy mulohaza, burch va mas'uliyatni chuqur his qilmaslik kabi salbiy illatlarni oz bo'lsa–da uchratish mumkin. Ularning qalbi, ongi, xulq–odobi, hatti–harakati va muomala madaniyatiga yod zararli tushuncha, ta'sirlar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Yoshlar orasida iymon–e'tiqodi sust, hayot maqsadlaridan loqaydlik, g'o'rlik, sog'lom turmush tarziga xos xislatlar va axloqiy qoidalar mohiyatini anglab yeta olmagan o'g'il–qizlar orasida "ommaviy madaniyat" ta'siriga moyillik orqasida qo'pollik, ishyoqmaslik, jamoatchilik joylarida, hatto ba'zi oilalarda odobga zid hatti–harakat, so'kinish, katta avlod vakillarini mensimaslik hollarini ham uchratamiz. Ba'zi yoshlar ichkilik, giyoxvandlik, andishasiz

hatti–harakat va jinoyatchilikka qo‘l urishmoqda. Kamol topgan sari har bir yoshda boshqalarga ijobiy axloqiy munosabat shakllanib, o‘zligini anglab boradi.

Xulosa. Xullas, hayot taraqqiyoti bilan birga ijtimoiy talablarga xos axloqiy xislatlar qurshovida yashayotganini, bu qadriyatlar sog‘lom turmush tarzi mezonini ekanligini, o‘z faoliyati – xulq–odobi va hatti–harakatida ularga amal qilish zaruratini anglab yetadi va umri davomida ularga asoslanib yashashga odatlanadi. XXI asr yoshlarida insonparvarlik, oilaparvarlik, Vatanga mehr–sadoqat, adolat, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, matonat, sabr–qanoat, zehn–o‘quv, chidamlilik, muruvvatli hamda yonib yashash va savob ishlar qilish, bular uchun esa yetuk aql–zakovat, bilim egasi, zamonaviy kasb–xunarni chuqur egallash kabi fazilatlarni axloqiy munosabat mezoniga aylantirish, har bir yoshning ongu shuuriga singdirish hamda ezgu maqsadlarga erishishda yuksak omil va o‘lchov bo‘lishini hayot taqozo etmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Arislanbayeva Z. Ye. Globallashuv davridagi milliy madaniyat // *Экономика и социум.* – 2022. – № 11-1 (102). – B. 27–30.
2. *Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari:* Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami (Jizzax, 17-may 2021 yil, O‘zbekiston). – Jizzax, 2021. – 504 B.
3. Pardaboyeva M. F., Safarova S. G., Komiljonova S. A. O‘sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi — milliy yuksalish garovi // *Бюллетень педагогов нового Узбекистана.* – 2024. – 2-jild, 9-son. – B. 31–35.
4. Axloqiy aqidalar. Axloqiy ideal [Elektron resurs]. – URL: <https://oyina.uz/uz/teahouse/1322> (murojaat qilingan sana: 07.03.2026).
5. Abdullayev B., Nishanbayeva E. Siyosiy ta‘limotlar tarixi fanini o‘rganishning metodologik tamoyillari // *O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy fanlar seriyasi.* – 2025. – № 1/5/1. – B. 45–48.